XALQ DEPUTATLARI DENOV TUMANI KENGASHINING QARORI

Denov tumani, Sh.Rashidov ko‘chasi 238-uy. 190500, tel.: (+99876) 41-31-400

2023 - yil 10 - may VI-75-59-8-111-K/23 Denov tuman hokimligi

2023-yilning 1-choragi davomida Denov tuman mahalliy budjeti daromadlar rejasining belgilangan prognoz ko‘rsatgichlaridan orttirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 25-dekabrdagi “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-657-son Qonuniga muvofiq tuman budjetining joriy yil 1-choragi davomida shakllangan qo‘shimcha mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha xalq deputatlari Denov tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2020-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-657-son Qonunning 14-moddasiga muvofiq, mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash tartibi belgilab qo‘yilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda mutasaddi tashkilotlarning tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari quyidagilardan tashkil topadi:

Tuman mahalliy budjetining har yil boshida aniqlanadigan erkin qoldiq mablag‘laridan;

Tuman mahalliy budjeti daromadlarining birinchi-uchinchi hisobot choraklari yakunlari bo‘yicha aniqlanadigan daromadlarni prognozdan oshirib bajarilishidan;

O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 120-moddasi to‘rtinchi qismiga muvofiq tuman mahalliy budjetidan ajratiladigan mablag‘lar kamaytirilishi natijasida bo‘shab qolgan mablag‘lardan.

4. Tuman mahalliy budjetining 2023-yilda 1-chorak yakuniga ko‘ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan mablag‘i **282 468,0 ming so‘mni** tashkil etganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Joriy yil 1-choragida shakllangan daromadlar rejasining oshirib bajarilgan mablag‘lari quyidagi xarajatlarga yo‘naltirilgan.

jumladan;

Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari bilan bog‘liq tadbirlarga **169 480,0 ming so‘m ya’ni 60,0 foizi;**

Boshqaruv organlari bilan bog‘liq tadbirlarga **94 376,0 ming so‘m ya’ni 33,4 foizi;**

Boshqa tadbirlarga **18 612,0 ming so‘mni ya’ni 6,6 foizi** yo‘naltirilganligi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5.Mahalliy budjetining qo‘shimcha shakllangan mablag‘lari favqulotdda vaziyatlarda va shunga o‘xshash kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rilishi talab etiladigan hollarda Kengashga keyin hisobot berish sharti bilan hokimning qarori asosida yo‘naltirilishi mumkinligi belgilansin.

6.Tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari tuman mahalliy budjeti hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilmagan tashkilotlarni joriy saqlab turish xarajatlari uchun yo‘naltirilishiga yo‘l qo‘yilmasiligi belgilansin.

7. Tuman mahalliy budjetining joriy yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari ihisobidan yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga chorak yakuni bilan tuman hokimi tomonidan hisobot berib borilishi belgilansin.

8. Tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalaridan mablag‘ oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek ushbu mablag‘larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

9. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Denov tumani Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni

amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi O.Niyozov zimmasiga yuklatilsin.

10. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi o'rinbosari **A.Narzullayev**

Xalq deputatlari Denov tuman Kengashining
2023 yil 10 maydagi
VI-75-59-8-111-K/23-son qaroriga
1-ilova

Denov tuman mahalliy budjetining 2023-yilda 1-chorak yakuniga ko‘ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan ajratiladigan mablag‘lar

(ming so‘m)

T/r	Tashkilotlar nomi	№	Sohalar bo‘yicha ajratilgan mablag‘ maqsadi	Miqdori (ming.so‘mda)	Foiz hisobida
a	1	2	3	4	5
	Jami shakllangan manba			**282 468,0**	**100%**
	Jami ajratilgan mablag‘			**282 468**	***100,0%***
I.	**Tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari bilan bog‘lik tadbirlariga**			***169 480,0***	***60,0%***
1	Denov tuman hokimligiga	1.1	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-martdagi "Yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida" gi 132-sonli qarorining 4-bandi birinchi xat boshiga asosan «Yoshlar daftari» jamg‘armasiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek, tuman (shahar)lar mahalliy budjetlarida shakllangan qo‘shimcha manbalarning kamida 15 foizi miqdorida har chorakda ajratilishi uchun	42 370,0	
		1.2	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-5072-sonli qarorining 2-bandi ikkinchi xat boshiga asosan 2021-yil 1-iyuldan boshlab jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga ajratiladigan tuman (shahar)lar budjetlari qo‘shimcha mablag‘larining eng kamida 30 foizi "Ochiq budjet" portaliga jamg‘armasiga yo‘naltirishga	84 740,0	
		1.3	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi "Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-5020-sonli qarorining 7-bandi ikkinchi xat boshiga asosan har chorakda mahalliy budjet prognozining ortiqcha bajarilgan qismining kamida 15 foizini «Ayollar daftari»ga kiritilgan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga yo‘naltirish belgilangan	42 370,0	

II.	**Tuman hokimligi va boshqa boshqaruv organlariga**			**94 376,0**	***33,4%***
2	Denov tumani hokimligiga	2.1	Surxondaryo viloyat hokimining 2023-yil 21-yanvardagi "Surxondaryo viloyati shahar va tuman hokimlari o‘rinbosarlarining 2022-yillik eng muxim samaradorlik ko‘rsatkichlarining baholash natijalari haqida"gi 13-01/31-sonli yig‘ilash bayoniga asosan 2022-yillik yakuni bo‘yicha yuqori eng muxim samaradorlik ko‘rsatkichlar olgan tuman xokim o‘rinbosarilarini rag‘batlantirishga	12 110,0	
		2.2	Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2022-yil 10-martdagi "Surxondaryo viloyat hokimligi Axborot xizmati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida"gi VI- 45-59-8-0-K/22-sonli Kengash qarorining 2-ilovasiga asosan Tuman hokimligining matbuot hizmatining bosh va yetakchi mutaxassislarining ish haqqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlariga	26 222,0	
		2.3	Tuman hokimligining yordamchi huquqshunosi ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlariga	10 250,0	
		2.4	Tuman hokimligining xizmat avtomashinalariga yoqilg‘i moylash materaillari sotib olish uchun	20 000,0	
		2.5	Tuman hokimligi va xalq deputatlari tuman Kengashi xodimlarini rag‘batlantirishga	22 044,0	
		2.6	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi "Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustivor chora tadbirlar "gi PQ-3182-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida Denov tuman 2-sektor shtabi rahbari tuman prokurorinig 2023-yil 17-yanvardagi 3-23-sonli xatiga asosan sektor a’zosi Kadastr agentligining Surxondaryo viloyat boshkarmasining Denov tuman filiali mutaxassisi Ortiqov Otabek Shavkat o‘g‘lini rag‘batlantirishga	3 750,0	
III.	**Boshqa xarajatlarga**			**18 612,0**	***6,6%***
3	Denov tuman hokimligiga	4.1	Denov tuman "Bog‘i eram" mahallasi Munojaat ko‘chasida 49- uyda yashovchi Qoraqulova Yulduzning xonadonida yong‘in bo‘lib, 7 turdagi tovar moddiy boyliklari yonib ketganligi tufayli ko‘rilgan zararni qoplash uchun	3 222,0	
		4.2	Denov tuman "O‘rikzor" mahallasi yashovchi Xaydarov Umid Achilovichning xonadonida yong‘in bo‘lib, 17 turdagi tovar moddiy boyliklari yonib ketganligi tufayli ko‘rilgan zararni qoplash uchun	15 390,0	